

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

RAQAMLAR:


- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **0,1 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,3 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **0,1 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida Buning natijasida joriy viloyatda 0,2 mingdan ortiq yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan korx-yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 0,1 o'tgan yilning shu davriga mingta (1,3%) ga o'sgan nisbatan 0,1 mingtaga hamda ularning umumiyligi soni 9,6 mingtani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga kupaygan hamda ularning soni 0,05 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ning asosiy ulushi Navoiy shahrida (30,5 %), Karmana (17,7%), Qiziltepa (11,2 %) va Xatirchi (10,1 %) tumanlarida kuzatilmogda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Navoiy viloyati	9,8	100,0	9,6	100,0
Navoiy shahar	3,0	30,9	2,9	30,4
Zarafshon shahar	0,6	5,9	0,6	5,9
tumanlar:				
Konimex	0,3	3,0	0,3	2,9
Qiziltepa	1,1	11,2	1,0	11,2
Navbahor	0,8	8,4	0,8	8,5
Karmana	1,7	17,3	1,7	17,6
Nurota	0,8	8,1	0,8	8,1
Tomdi	0,2	1,8	0,2	1,7
Uchquduq	0,3	3,5	0,3	3,6
Xatirchi	1,0	9,9	1,0	10,1


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,1 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 2,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,3 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,0 % savdoda, 16,1 % sanoatda, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 9,0 % qurulishda, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 29,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,6 f.p.), savdoda (-0,4 f.p.), axborot va aloqada (-0,2 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,8 f.p.) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,7 f.p.), qurulishda (+0,1 f.p.dan), sanoatda (+0,6 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,5 f.p.) shuningdek tashish va saqlashda (+0,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	3,7	-1,6
Savdo	20,0	20,4	-0,4
Axborot va aloqa	1,1	1,3	-0,2
Sanoat	16,2	15,6	+0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,3	9,6	+1,7
Qurilish	9,0	8,9	+0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	6,8	+0,5
Tashish va saqlash	4,0	3,7	+0,3
Boshqa turlari	29,1	30,0	-0,8

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 60 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga yoki 1,6 % ga kamaygan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 19 ta (31,7 %), Karmana tumani 22 ta (36,7 %) va Nurota tumanlari 5 ta (8,3 %), Qiziltepa tumani 4 ta (6,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Navbahor tumani 3 ta (5,0 %), Xatirchi tumani 2 ta (3,3 %), Zarafshon shahar 2 ta (3,3%), Konimex tumani 2 ta (3,3 %) va Uchquduq tumani 1 ta (1,7) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lган ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 40 ta (66,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (10,0 %), savdoda 4 ta (6,7 %), boshqa turlarida esa 5 ta (8,2 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (5,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,7 %) va qurilishda 1 ta (1,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlashda, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda qurilish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 7,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'satkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 12,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2452 tasi (31,9 %) Navoysi shahriga, 1471 tasi (19,1 %) Karmana, 866 tasi (11,3 foizi) Qiziltepa hamda 681 tasi (8,9 foizi) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7,7 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 1528 tasi (19,9 %) - sanoatda, 1905 tasi (24,8 %) – savdoda, 857 tasi (11,1 %) - qurilishda, 1048 tasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 699 tasi (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 368 tasi (4,8%) - tashish va saqlashda, 146 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 94 tasi (1,2 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek 1045 tasi (13,6%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil 1 fevral holatiga bilan 0,2 mingdan ortiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qara-ganda 39,5 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahrida (37 ta), Nurota (29 ta), Xatirchi (22 ta), Karmana tumanlarida (20 tadan) va Zarafshon shahrida (18 ta) tashkil etilgan. Eng kam, Qiziltepa va Navbahor (15 tadan), Konimex va Uchquduq (7 tadan) hamda Tomdi (3 ta) tumanlari-da tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (42 ta), sanoatda (39 ta), qurilishda (25 ta), savdoda (23 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (22 ta) sohasida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (4 ta), tashish va saqlashda (7 ta) va axborot va aloqada (4 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 535 tani tashkil etib, ulardan 518 tasi yoki 96,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'satkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni 41,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 22,0 % yoki 114 tasi sanoat, 21,4 % yoki 111 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,7 % yoki 128 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 17,8 % yoki 92 tasi savdo, 1,7 % yoki 9 tasi qurilish, 1,5 % yoki 8 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 1,4 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, hamda 8,9 % yoki 46 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **S.Doniyev**
(0371) 230-84-56

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan